

BOSHLANG'ICH SINIF "O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLIKLARIDAGI TURG'UN BIRIKMALARNI TAHLIL QILISH USULLARI

Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi

Qo'qon Universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi

Tel: (91) 2002073, e-mail:imomaliyevamusharrafxon@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf "O'qish savodxonligi" darsliklarida uchraydigan turg'un birikmalar o'rganiladi. Turg'un birikmalarining o'quv matnlaridagi o'rni, ularning bolalarning so'z boyligini oshirish va matnni yaxshiroq tushunishiga ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada ularni aniqlash, ma'nosini tushuntirish hamda dars jarayonida samarali ishlatish usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, darslikdagi turg'un birikmalar tilning obrazlilikini oshirishi va o'quvchilarda badiiy tafakkurni shakllantirishiga urg'u beriladi.*

Kalit so'zlar: *turg'un birikmalar, badiiy nutq, so'z boyligi, boshlang'ich sinf darsliklari.*

Abstract: *This article studies the stable compounds found in primary school "Reading Literacy" textbooks. The role of stable compounds in educational texts, their impact on increasing children's vocabulary and better understanding of the text are analyzed. The article considers methods for identifying them, explaining their meaning, and effectively using them in the lesson. It is also emphasized that stable compounds in textbooks increase the figurativeness of the language and form artistic thinking in students.*

Keywords: *stable compounds, artistic speech, vocabulary, primary school textbooks.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются устойчивые словосочетания, встречающиеся в учебниках по чтению и грамотности для начальной школы. Анализируется роль устойчивых словосочетаний в учебных текстах, их влияние на расширение словарного запаса детей и лучшее понимание текста. В статье рассматриваются методы их выявления, объяснения их значения и эффективного использования на уроке. Также подчёркивается, что устойчивые словосочетания в учебниках повышают образность языка и формируют художественное мышление учащихся.*

Ключевые слова: *устойчивые соединения, художественная речь, лексика, учебники для начальной школы.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlari va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ga muvofiq yangilanib borayotgann ta'lim tizimi Boshlang'ich ta'lim oldiga ham yangicha talablarni qo'yimoqda. Jumladan, Boshlang'ich ta'limda ona tili fanini o'qitishning bosh maqsadi o'z fikrini erkin va ta'sirli qilib yozma va og'zaki shaklda ifodalay oladigan, o'zbek tili qonun-qoidalarini ongli o'zlashtirishga hamda nazariy bilimlardan o'rinli va to'g'ri foydalana oladigan, nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishga qaratilgan.

Shu bilan birga ta'lim mazmunining yangilanishida "o'quvchi o'quv jarayonining faol ishtirokchisi" tamoyiliga o'tilgani bois dars jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda noan'anaviy tarzda tashkil etish, o'quvchilarning erkin ijodkorligi va mustaqil izlanuvchanligini oshirish talabi qo'yilmoqda. Bu talablar asosida avvalo, nutq o'stirish turadi. O'quvchilar nutqini o'stirishda lug'aviy birliklar-so'z va frazeologik birliklar (iboralar), tasviriy ifodalar asosiy vosita hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining birinchi o'rinda vazifasi kichik yoshdagi o'quvchilar nutqini o'stirish bo'lib, bu asosan, "Ona tili" va "O'qish" fanlarini o'qitish asosida amalga oshiriladi.

Iboralar juda murakkab va ko'p qirrali hodisadir. Har bir ibora muayyan hajmdagi ma'noga, shaklga va qo'llanish imkoniyatiga ega va ularning shakli ham o'zgacha. Iboraning shakli deyilganda, uning fonetik, orfografik qurilish tarkibi va grammatik shakllari tushuniladi.

Leksemaga qaraganda, iboralar ma'nolarining hajmi, ko'p ma'noliligi bilan farqlanadi. Bu kabi holatlar iboralarni nutqqa olib kirishni qiyinlashtiradi. Maktabda ona tili og'zaki va yozma nutqni biladigan, til unsurlaridan o'rinli foydalana oladigan, tom ma'nodagi savodli o'quvchilarni tayyorlashni ta'minlaydigan vosita tarzida o'rgatiladi. Ona tilini yaxshi bilish, mamlakatning siyosiy, madaniy-ma'rifiy, mafkuraviy, xo'jalik hayotida faol ishtirok etishga yordam beradi. Turli maqsadlarga erishishda vosita hisoblanadi. O'zbek tili lug'ati tarkibi jihatidan juda boy va rang-barangdir.

Tilimizda mustaqil leksik ma'noga ega bo'lgan alohida so'zlardan tashqari leksik ma'no ifodalaydigan turg'un birikmalar-iboralar ham mavjud. Ularning ma'nolari tarkibidagi so'zlarning yaxlit ma'nosi asosida yuzaga keladi va inson xotirasida bir butun va tayyor holda saqlanib, boshqa birikmalar bilan xuddi alohida so'z kabi munosabatda bo'ladi. Iboralar ham tilda aloqa-aralashuv, fikr almashuv vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga iboralar tilning leksik va stilistik imkoniyati, boyligini ko'rsatuvchi sohasi hamdir. Shu ma'noda so'zlar kabi iboralarni ham o'rganish, o'ziga xos tomonlarini, nutqdagi faoliyatini, emotsional-ekspressiv vazifalarni o'quvchilarga yetkazish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Biroq iboralarni o'zlashtirish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bir muncha qiyinchilik tug'diradi. Chunki iboralarning o'zi to'g'risida nazariy ma'lumot berilmaydi, lekin boshlang'ich sinf o'qish va ona tili darsliklari matnlarida juda ko'plab iboralar uchraydi.

Asosiy qism

O'quvchilar nutqini o'stirish tizimida leksik-frazeologik ishlarning o'rni va ahamiyati muhim sanaladi. Umumiy o'rta ta'lim (xususan, Boshlang'ich ta'lim) DTS va o'quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda o'quvchilarda nutqiy kompetensiya elementlari leksik-frazeologik ishlar asosida shakllantiriladi. Ya'ni 1-4 sinf "Ona tili" va "O'qish" fani darsliklarida berilgan matnlar tahlili davomida quyidagi leksik-frazeologik ishlarni amalga oshirish lozim:

1. Leksik-frazeologik birliklarni o'zaro farqlash.
2. Lugat ustida ishlash.
3. Leksik-frazeologik tahlil.

Leksik-frazeologik birliklarni o'zaro farqlashda asosiy e'tibor frazeologik birliklarni o'rgatishga qaratiladi. Boshlang'ich ta'lim ona tili va o'qish darsliklarida berilgan matnlarda lug'aviy birliklar qatorida frazeologik birliklar ham faol qo'llanilgan bo'lib, mazkur birliklarni maxsus o'rganish o'quvchilar nutqini rivojlantirish, so'zamolligini oshirish, badiiy tafakkurini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, frazeologik birliklarni o'rgatishning quyidagi muhim jihatlari bor: - O'quvchilar frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishadi; - frazeologik birliklarni qo'shma so'zva boshqa lug'aviy birliklardan farqlashni o'rganadi; - frazeologik birliklarni sintaktik birlik (so'z birikmasi, gap)lardan farqlashni o'rganadi;

- frazeologik birliklarning matn (badiiy va ilmiy-ommabop matn)larda anglatgan ma'nosi va vazifasini o'rganadi; - O'quvchilar nutqi frazeologik birliklarlar asosida rivojlanadi. Tilimizda necha asrlardan beri keng qo'llanib kelayotgan, obrazli fikr ifodasi bo'lmish frazeologik birliklar mavzusi bo'yicha alohida soat (dars) ajratilmagan bo'lsa-da, frazeologik birliklarni o'rganish va undan nutqda unumli foydalanish ko'nikmasini 1-4 sinflarda butun o'quv yili davomida gap ustida ishlash, matn ustida ishlash, matnlar tahlili, nutq o'stirish, bog'lanishli nutqqa o'rgatish darslarida shakllantirish mumkin.

Darhaqiqat, o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va nutqini o'stirishda frazeologik birliklarni nutqda qo'llay olishning ahamiyati katta ahamiyatga ega, ularning bu mavzu bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash va ulardan to'g'ri va o'rinli foydalana olish ko'nikmasini hosil qilishda ona tili va o'qish darslarida turli mashqlar tizimidan foydalanish mumkin. Bunda avvalo, frazeologik birliklarning o'ziga xos leksik-semantik, uslubiy xususiyatlari, ularning qo'llanishiga ko'ra faol va nofaol turlari, lug'aviy va sintaktik birliklarga o'xshash va farqli jihatlarni o'qituvchining o'zi anglab yetishi va ularni o'rgatishning yangi pedagogik texnologiyalarini, o'qitish metodlarini qo'llay olishi lozim.

Frazeologik birliklarni o'rgatish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi: Ilk bosqichda frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, ularning leksiksemantik ma'nolari haqida dastlabki tushunchalar shakllantiriladi. Bu asosan amaliy topshiriqlar va qisman nazariy savol-javoblar orqali amalga oshiriladi. Asosiy bosqichda frazeologik birliklarning so'z, qo'shma so'z kabi lug'aviy birliklar hamda maqol, aforizmlar, tasviriy ifodalar kabi barqaror birikmalardan farqlanishi o'rganiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida frazeologik kompetentlikni shakllantirish metodlaridan "onatili va o'qish savodxonligi" darslarida unumli foydalanish mumkin. Milliy o'quv dasturi loyihasi asosida yaratilgan darsliklarda iboralar ma'nosini anglashga doir birqancha mashqlar berilgan. Ammo bu mashqlar faqat o'sha darsda berilgan bir yoki iboraning tahliliga yo'naltirilgan. O'quvchida frazeologik kompetentlikni shakllantirish maqsadida maxsus lingvistik mashqlar to'plamini ishlab chiqish masalasi juda dolzarb.

Hozirda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining aksariyatibu kabi mashqlarni ishlab chiqish va foydalanish, umuman olganda iboralar lug'ati ustida ishlash ko'lami haqida hech qanday tasavvurga ega emas. Shunday mashq turlaridan ayrimlaridan namuna keltiramiz. 2- sinf matnida berilgan iboralar lug'ati ustida ishlash. Ertak beriladi. Analiz jarayonida notanish so'zlar bilan birgalikda iboralar lug'ati ustida ishlash tavsiya etiladi. Bu bora nutq

o'stiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanab, ular o'quvchi lug'at boyligining muhim qismi sanaladi.

Ibora leksikologiya bo'limida o'rganilib, nutqimizni boyitadigan, go'zallashtiradigan va ta'sirchanligini oshiradigan vositadir. O'quvchilar nutqini o'stirish uchun ona tili va o'qish savodxonligi mashg'ulotlarida iboralarni o'qitishda gapda berilgan so'zlarni iboralar bilan almashtirish, ular ma'nosini sharhlash, ma'no darajalarining oshib yoki kamayib borishini taqqoslash kabi amaliyishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan: U ishni oson bajardi. U ishni xamirdan qil sug'urganday bajardi. Bu xushxabarni eshitgan onam juda xursand bo'ldi.

Bu xushxabarni eshitgan onamning chehrasi yorishdi. Misollarning birinchisida fikr sodda, oddiy qilib aytilgan bo'lib, ikkinchisida esa fikr birinchisiga qaraganda ta'sirli, ifodali, obrazli qilib berilgan. Birinchi gapda ifodalagan ma'no darajasi, ikkinchi gapda yanada oshib boradi, ma'no kuchayadi. Bu gaplarning qiyosidan ko'rinib turibdiki, iboralar qatnashgan gap so'zlovchining maqsadini aniq, ta'sirchan qilib, so'zlovchi va tinglovchining hayajonini qo'zg'aydi, kayfiyatiga ham ta'sir qiladi.

Bundan tashqari o'quvchilarga iboralar lug'atini tuzdirish, iboralarga zidma'noli, muqobil yoki so'z birikmalari tanlash kabi mashqlardan foydalanish, shuningdek, o'quvchi badiiy asarni o'qiyotganda uchraydigan shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli iboralar ma'nosi sharhlangan izohli lug'at daftari tutsa, mazkur so'zlar ishtrok etgan gaplar tuzsa so'z boyligini oshirish va nutqiy mahoratini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi tizimli mashqlar o'quvchida frazeologik kompetensiyani shakllantiradi.

O'qish savodxonligi darslarida matn tahlili jarayonida o'quvchida frazeologik kompetentlikni shakllantirish maqsadida quyidagi topshiriq turlaridan unumli foydalanish mumkin: illustratsiyalash; sinonim iboralar qatorini tuzish; antonym iboralar qatorini tuzish; "bosh", "ko'z", "qo'l", "oyoq" so'zlari ishtirok etgan iboralarga misol keltirish; berilgan iborani ma'nodoshiga almashtirish; nuqtalar o'rniga iboraning tushib qolgan qismini topib qo'yish; moslikni to'g'rilang; refleksiya mashqlari; Poliglot (ingliz tilidagi o'zbek tilidagi iboraga almashtirish) "Iboralar olami" sinfdan tashqari mashg'ulotni tashkil etish; "Frazeologik turnir" tashkil etish, "Batl aytish" Bu kabi topshiriqlar o'quvchining iboralardan foydala olish ko'nikmasini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2022–2023-o'quv yilidan boshlab Milliy dastur loyihasi asosida darsliklarning yangi avlodini yaratish va tajriba-sinovdan o'tkazish yo'lga qo'yildi. 2-3-sinf ona tili va o'qish savod xonligi darsligida iboralarni o'qitish uchun alohida soat ajratilgan, o'quvchida tinglab tushunish va anglash, o'qish malakaslarini shakllantirishga doir topshiriqlar berilgan. Iboralarni tahlil qilishga, ular bilan amaliy tanishtirishga oid topshiriqlar ham kiritilgan. Frazeologik kompetensiya quyidagi malakatalari asosida aniqlanadi:

- Berilgan matndagi iboralarni ajrata oladi
- Iboralarning qanday ma'no ifodalab kelayotganligini anglaydi;
- Iboralarni ma'nosiga mos so'zlar bilan almashtira oladi;
- Nutqida iboralardan unumli foydalanada;

- So'zning ma'nosiga mos iborat anglay oladi;
- Iboralarni tasvirlay oladi;
- Iboralardan yozma nutqda foydalanadi;
- Iboralar lug'ati bilan ishlay oladi.

Bu kabi malaka talablarini o'quvchida shakllantirish orqali uning og'zaki nutqini rivojlantirish, chiroyli va mazmundor bo'lishiga erishamiz. 1-sinf "ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida berilgan O'tkir Xoshimovning "Sariq devni minib" romanidan berilgan parchada: "Kichik singlimning oti – Donoxon. Hozir birinchi sinfda o'qiyapti. Oyimning aytishiga qaraganda, u katta bo'lsa, albatta, shifokor bo'larmish.

Menimcha, undan shifokor chiqmasa kerak. Nega desangiz, ko'cha-ko'yda hamshiralarga ko'zi tushib qolsa, ukol qiladi deb, tog'dan tog'ga qochadi". Ikki o'rinda ibora berilgan bo'lib, bu iboralarni nima uchun ajratib ko'rsatilgani va qanday ma'noni anglatishi haqida muhokama qilish yozilgan.

Bu mashqlar o'quvchining frazeologik birliklar haqidagi tushunchasini 1- sinfdanoq rivojlantirish va ma'nolarini tushintirish uchun qo'llanilgan. Iboralarni o'rganish va ularni nutqida qo'llash o'quvchining nutq mazmundorligi va chiroyli bo'lishini ta'minlaydi. O'quvchilarga iboralarni bir so'zga teng ekanligi va ibora o'rniga so'z qo'yib ishlatsa bo'lishini misollar yordamida tushintirib beriladi. Misol uchun "ko'zi tushib qolsa" iborasi – qaraganida so'ziga to'g'ri kelishini hikoyaning o'sha qismiga qo'yib bolalar bilan birgalikda ma'nosi o'rganiladi.

O'quvchilar har bir iboraning o'rniga osha iborani ma'nosini anglatadigan so'z qo'yib, pardadoshlari bilan muhokama qilishadi. O'qituvchi xato aytilgan so'zlarni to'g'irlab, o'quvchilar bilan tahlil qilishadi. 1-sinf o'quvchilari bu jarayonda ozgina bo'lsa ham muammo va qiyinchiliklarga duch kelishadi. Kamchiliklar bartaraf etilib, har bir jarayon ustida ishlanadi.

Bunday iboralar 2- sinf darsliklarida ham berilgan bo'lib, bolani mantiqan o'ylanishga va fikr yuritishga undaydi.

- ☒ Quydagi gaplarda qanday farqni ko'ryapsiz?
- ☒ Qiynalganlariga yordam qo'lini cho'zishni o'z burchlari deb biladilar
- ☒ Qiynalganlarga yordam berishni o'z burchlari deb biladilar.
- ☒ Mahalladoshlar bilan bir oila a'zolaridek qo'lini qo'lga berib mehnat qilamiz.

Mahalladoshlar bilan bir oila a'zolaridek birgalikda mehnat qilamiz.

Ko'nglimiz tog'dek ko'tariladi - Juda xursand bo'lamiz.

Yuqoridagi iboralar ham mazmundorlik va fikr teranligi, gap mazmuni qay darajada o'zgarganligini bilan o'quvchilarga o'rgatiladi.

Xulosa

Boshlang'ich sinf "O'qish savodxonligi" darsliklarida uchraydigan turg'un birikmalar o'quvchilarning til boyligini oshirish, badiiy nutqni tushunish va estetik didini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu birikmalar matn mazmunini chuqurroq anglash, obrazlarni tasavvur qilish va muallif fikrini to'g'ri talqin qilishda yordam beradi. Maqolada olib borilgan tahlillar natijasida shunday xulosaga kelindiki, darsliklardagi

turg'un birikmalar nafaqat badiiy tilni boyitadi, balki o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda ham samarali vosita bo'la oladi.

Turg'un birikmalarni o'rgatishda avvalo ularning ma'nosini tushuntirish, ularni kontekstda ko'rsatish, dars jarayonida vizual va interaktiv metodlardan foydalanish muhimdir. Shuningdek, ularni mustahkamlash uchun mashqlar, dramatik ifodalar, rolli o'yinlar kabi usullar orqali o'quvchilar ongiga singdirish tavsiya etiladi. Tahlil davomida aniqlanishicha, ko'plab darslik matnlarida turg'un birikmalarning kontekstual yoritilishi yetarli bo'lmay qolgan holatlar ham mavjud. Shu bois, darslik tuzuvchilarga ushbu jihatga alohida e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

Taklif va tavsiyalar

O'qituvchilar uchun turg'un birikmalarni o'rgatish bo'yicha amaliy qo'llanmalar, metodik tavsiyalar va mashqlar to'plamlarini ishlab chiqish zarur. Bu o'quvchilarda nafaqat eslab qolish, balki to'g'ri qo'llash ko'nikmasini ham shakllantiradi.

Dars jarayonida interaktiv yondashuvlardan (rol o'ynash, dramatzatsiya, guruhli muhokama) keng foydalanish orqali turg'un birikmalarning mazmuni chuqurroq o'zlashtiriladi.

O'quvchilarning mustaqil fikrlashi va badiiy tafakkurini rivojlantirish uchun ularni turg'un birikmalarni o'z nutqida ijodiy ishlatishga undovchi topshiriqlar berish foydali bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, turg'un birikmalarni o'qitish jarayoni faqatgina ularning lug'aviy ma'nosini yod olish bilan cheklanmasligi kerak. Aksincha, ular orqali o'quvchilarda obrazli fikrlash, badiiy tafakkur, hamda kontekst asosida tushunish qobiliyatini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Kelgusida bu boradagi metodik yondashuvlarni yanada chuqurlashtirish, darsliklarda turg'un birikmalarning izchil va tushunarli qo'llanilishini ta'minlash, hamda o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'afforova T., Nurillayeva Sh., Mirzahakimova Z., O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. – T.: O'qituvchi. 2016

2. Qosimova K., Matjonov S., Gulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Darslik – Toshkent, Noshir, 2009

3. Immomaliyeva, M.I.(2021, Aprel).THE EVOLUTION OF MATAPHORICAL MEANING.In E-Confrnce Globe(pp.25-26).

4. MAKTABGACHA INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI.QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI,408-411.

5. Zarnigor, E. (2023). MTTDA QABUL QILINGAN "BOLAJON" VA "ILK QADAM" O'QUV DASTURLARINING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI.QO'QON UNIVERSITETI XABAR NOMASI,434-438.

6. Soporboyevna, M. M. (2023). BOSHLANG'ICH SIF O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA ABDULLA AVLONIYNING "TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ"ASARINING O'RNI.
7. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(09), 187-191.
8. Imomalieva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In E-Conference Globe (pp. 25-26).
9. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10, 121-123.
10. Musharrafxon, I., & Nigora, M. (2024). YOSH AVLODGA KITOBXONLIK KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O 'RNI. Kokand University Research Base, 216-219.
11. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 271-276.
12. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 173-176.
13. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In Конференции.
14. <https://web-journal.ru/journal/article/view/1965>
15. <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/698>